



TOVUSH VA FONEMANING XUSUSIYATLARI

Rahimova Shohina Rahmonovna

BuxDU Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589114>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tilshunoslikda tovush va fonemaning tushunchalarining bir-biridan farqi bu farqlanishning muhim bo'lgan umumiyligi va xususiy munosabati va ular haqida ma'lumot keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tovush, fonema, akustika, artikulatsiya.

Tilshunoshlik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo'lgan umumiyligi va xususiylik munosabatini aks ettiradi. Biz nutqiy jarayonda bevosita tovushlarni eshitamiz. Masalan: i tovushini olaylik. U avvalo, har bir shaxsning o'ziga xos talaffuzini o'zida namoyon qiladi. Shu bilan birga so'zlarning tarkibida yondosh tovushlar ta'sirida beriladi. Masalan: tushib so'zining ikkinchi bo'g'inidagi i birinchi bo'g'indagi uning ta'sirida u tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. Bilan, tilim, sira so'zlar tarkibida i tovushi bilinar-bilinmas aytiladi. Qiliq, qiziq kabi so'zlar tarkibida i tovushi til orqa tovush ta'sirida u ga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari, unga so'zlovchining qaysi shevaga mansublik belgisi qo'shiladi. Xullas, nutq jarayonida xilma-xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasida takrorlanadigan umumiyligi jihatlar bor. U ham bo'lsa torlik belgisi va lablanmaganlik belgisi. Shu belgilari bilan a, o, e, u, o', ga zidlanadi. Ana shu birlashtiruvchi belgilar ma'lum xususiylikni umumiyliklarga birlashtirishga yordam beradi. Umumiylik so'zlovchi va tinglovchilar xotirasida mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham bu umumiyligi turlicha talaffuz qilinishiga qaramasdan, so'zlovchi va tinglovchilar o'rtasida bir xil tushunishga olib keladi. Nutq jarayonida real talffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi tovush sanaladi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi fonemadir. Masalan: tosh-tom so'zlarini sh va m farqaydi. Demak, sh va m alohida-alohida fonemalardir. Yoki tosh- tesh zidligida



o va e; tosh- qosh zidligida t va q ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi, shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi.

Tovush bilan fonemani o'zaro farqlash zarur.

Tovush nutqning fonetik jihatdan bo'linmaydigan eng kichik birligidir, u ma'no ifodalamaydi, lekin har qanday so'z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, a, d, m, o tovushlarini ma'lum bir tartibda talaffuz qilish orqali odam, omad, moda singari boshqa- boshqa ma'nodagi so'zlar hosil qilinadi. So'zlar tovush tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlar: ot-ol, ol-oq, oq- osh, osh-ov, ov- oz, oz- on, on-or, or-os, os- och, och- og', og'- ox ; o'z- oz ,oz- iz , iz- uz, uz-ez, davlat- savlat, adib- adip kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko'ra farq qiladigan so'zlar .

Masalan: qo'y - yo'q birinchi so'z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so'zning oxirida qo'llanadi.

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan so'zlar. O'lka - yo'lka , et-bet , sava - savat , tana- tashna , taxt - taxta, o'roq - so'roq kabi.

Demak , so'zlar tovushlardan tuziladi , ular bir , ikki , uch , to'rt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil bo'ladi.

Fonema so'z ma' nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir . Masalan; bal - bel - bil - bo'l - bol so'zлari tarkibidagi a , e , i , o' , o tovushlari so'z ma' nolarini belgilash (ajratish) ga xizmat qiluvchi fonemalardir : bor , dor , zor , kor , nor , tor , xor , chor , qor so'zлari tarkibidagi birinchi tovushlar (b , d , z , k , n , t , x , ch , q,) ham shunday vazifa bajargan.

Fonemalarning uch belgisi bor :

1. Akustikasi (eshitilishi)
2. Artikulyatsiyasi aytish yoki talaffuzi
3. Ma'no farqlashishi ba'zi darsliklarda lingvistik tomoni deyiladi .

Bular ichida fonemaning ma' no ajratish belgisi muhim hisoblanadi . Aks holda tovush va fonema sanalmaydi .

Fonema tilning mavhum birligi bo'lib, nutqda pozitsiyali almashinadigan tovushlar majmuasida gavdalanadi. Burchakli qavslar fonemani belgilash uchun ishlataladi .



Fonemaning so'zdagi o'rniga qarab o'zgarishlari allofonlar (yunoncha allos « boshqa » fon « tovush ») yoki fonema variantlari deyiladi.

Fonema va tovush o'rtasidagi munosabat (allofon) -umumiyligi (fonema) va xususiy (allofoniya) o'rtasidagi munosabatdir.

Eng kichik bir yoqlama (ya'ni faqat shakliy tomondan iborat) lisoniy birlik - fonema. Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovush tipi haqidagi umumiyligi tasavvuri. O'zbek tilida so'zlovchi shaxsning ongida hozirgi o'zbek tilidagi 30 ta tovush tipi - fonema haqida ma'lumot bor. Bu ma'lumot kishi ongida uning til o'rganishi, o'zgalar va o'zining nutqini kuzatish natijalari sifatida hosil bo'ladi. Masalan, o'zbek tili sohibi o'zining eshitish va so'zlash a'zolari faoliyatini kuzatish natijasida [a] fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [u] fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [p] fonemasining undoshlik, shovqinlik, jarangsizlik, portlovchilik, lablablik, kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi « tabiiy » (go'yoki o'zi hosil qilingan) bilimga ega bo'ladi. Nutq so'zlaganda, ana shu umumiyligi belgini jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiyligini xususiy lashtirishga harakat qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida 30 ta fonema so'zlovchi ongida, avvalo, ikki guruh - unli va undoshga bo'lingan holda mavjud bo'ladi. Bu guruhsar tovush talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo'linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boraveradi. Masalan, o'zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim bo'lib undoshdan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o'zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo'linadi. Fonemaning ma'no farqlash xossasi mavjud bo'lib, bir fonemaning turli ko'rinishi bo'lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo'lgan tovush boshqa fonemaning varianti bo'lgan tovush bilan almashtirilsa, so'z ma'nosi yangilanadi, ya'ni boshqa so'zga aylanadi. Qiylaslang: [qora] va [qara], [ota] va [ata], [ona] va [ana]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma'no farqlovchi eng kichik birligi deb ta'rif beriladi.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи



таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

Корпуз лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris "Devonu lugotit turk" in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.



This article covers the main place of small business and business in todays market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'ysunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali olib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.



In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* /ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDА JON KONSEPTINING IFODALANISHI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.

13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.